

**SHARQ MUTAFAKKIRLARINING OILA VA FARZAND  
TARBIYASI HAQIDAGI QARASHLARI**

*Soatova Rayxona Sadriddin qizi  
Termiz davlat pedagogika instituti  
Pedagogika va san'at fakulteti  
Pedagogika yo'nalishi talabasi  
[rayhonasoatova@gmail.com](mailto:rayhonasoatova@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Sharq mutafakkirlarining oila, uning mazmun-mohiyati, nikoh, ota-onas, farzandlar munosabati haqida fikrlar yoritilgan. Muallif Imam al-Buxoriy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiy, Yusuf Xos Hojib kabi allomalarimizning oila haqidagi qarashlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Oila, farzand tarbiyasi, tarbiya, ilm-u ma'rifikat, mutafakkir allomalar.

**Annotation:** This article describes the thoughts of Eastern thinkers about the family, its essence, marriage, parents, and children's relationship. Author Imam al-Bukhari, Ibn Sina, Abu Rayhan Beruni, Al-Khorazmi, Yusuf Khos Hajib, etc., have analyzed the views of our scholars about the family.

**Key words:** Family, child upbringing, education, knowledge and enlightenment, intellectual scholars.

**Аннотация:** В данной статье изложены мысли восточных мыслителей о семье, ее сущности, браке, отношениях родителей и детей. Автор Имам аль-Бухари, Ибн Сина, Абу Райхан Беруни, Аль-Хорезми, Юсуф Хос Хаджиб и др. проанализировали взгляды наших ученых о семье.

**Ключевые слова:** Семья, воспитание детей, образование, познание и просвещение, ученые-интеллектуалы.

Sharq Uyg'onish davri allomalarining butun ilmiy merosida oila, oilada farzand tarbiyasi, ota-onas va yaqin qarindoshlar munosabatlari katta o'rin olgan. Bugungi kunda buyuk mutafakkir allomalarimizning nodir asarlarida bayon etilgan ota-onas hamda farzand munosabati borasidagi qarashlariga alohida to'xtalib o'tishimiz lozim deb hisoblayman. Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Al-Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mahmud Koshg'ariy, Alisher Navoiy singari olim-u daholar ilm-fan, san'at, adabiyot, umuman, butun madaniyatni, farzand tarbiyasi, oilaviy munosabatlarni rivojlantirishga katta hissa qo'shganlar. Hozirgi zamonda ta'lif-tarbiya vakillari, istiqlol mafkurasi shu kabi mutafakkirlarning merosidan bahramand bo'lsa, uning eng yaxshi sahifalarini, qoidalarini qabul qilsa, oldiga qo'ygan maqsadlarni yuksak sharaf ila bajarishi mumkin. Chunki, ularning hikmatnomasi, ibratnomasida bolalarni har tomonlama

tarbiyalash, kamolga yetkazish, ularning iymon-e'tiqodini butun bo'lishi, qadriyatlarimizning e'zozlanishining garovidir.

Manbalarda yozilishicha, Imom Buxoriyning (810-870) onasi nihoyatda oqila, diyonatli va fozila ayol bo'lib, o'g'lining ko'zi zaifligidan qattiq tashvishga tushgan va doimo uning ko'rish qobiliyatini qaytarish uchun duoda bo'lган. Otasidan erta ayrılgan Imom Buxoriyning asosiy tarbiyachisi va ilm yo'liga boshlovchisi onasi bo'lган. U farzand sifatida onasini juda hurmat qilgan va boshqalarni ham ota-onasini qadrlashga da'vat qilgan. Imom al-Buxoriy asari ahamiyatiga ko'ra Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi ma'naviy manba deb e'tirof etilgan "Al-Jome' as-Sahih" va undan keyingi "Al-adab al-mufrad" ("Adab durdonalari") asarlarida axloq, odob, farzandlarni ota-onaga hurmatda bo'lishga, onani e'zozlashga, mehr-oqibatli, ilm o'rganishga, pok va iymonli bo'lishga da'vat etilgan. Imom al-Buxoriy madrasada toliblarga dars berish bilan bir qatorda, ularga maoshlar ham belgilagan. Manbalarda miskinlar va ilm ahlini doimo moddiy tomonidan qo'llab-quvvatlaganligi alohida qayd etilgan. Uning pokiza va diyonatli inson sifatidagi tavsifi ko'plab zamondoshlari tomonidan e'tirof etilgan. Shuningdek, o'zining shaxsiy hayotida ortiqcha dabdaba va behuda sarf-xarajatlarga yo'l qo'ymagani va nihoyatda sabr-toqatli inson ekanligi alohida qayd etilgan.<sup>1</sup> Ushbu asar nafaqat diniy balki, dunyoviy ahamiyatga ega bo'lган nodir xazinadir. Bu asar har bir insonni iymon-e'tiqodli bo'lishga, haqiqatgo'ylikka, poklikka, halollikka undovchi, hayotini ezgulikka safarbar etishga, bashariyat ahliga yaxshilik qilishga, o'zidan yaxshi nom qoldirishga chorlaydi. Oilada farzand tarbiyasi, ota-onani e'zozlash, qarindoshlik munosabatlari, vatanparvarlik, ilm-u ma'rifatga intilish, odob-axloq, kundalik turmush muammolari xususida ko'maklashadigan masalalar ifodalangan.

Yevropada "Avitsenna", Sharqda "Shayx ur-rais" nomlari bilan mashhur bo'lган tibbiyot sohasining dahosi Ibn Sinoning ham bir qator asarlarida axloq, ota-on, farzand tarbiyasi masalalari atroflicha yoritilgan masalalar, nasihatlar mavjud. "Tib qonunlari", "Uy-joy tutish tartibi", "Ash-Shifo" kabi asarlar bunga misol bo'la oladi. Ibn Sinoning "Uy-joy tutish tartibi" haqidagi asarida ayollarning 17 ta hislatini sanab o'tadi. Unga ko'ra, dastlab ayol oqila va iymonli, sharm-hayoli va or-nomusli, didli va farosatli, orasta, o'z eriga sadoqatli, itoatkor, dilkash, bexarxasha, pokiza, vazmin, muloyim va o'zini tutib olgan jiddiy va ulug'ver, har bir xatti-harakatida yaxshi xislatlari sezilib turadigan tejamkor, erining og'ir damlarida unga malham bo'la oladigan mushfiq-u mehribon bo'lishi kerak. Demak, Ibn Sino bu yerda ayollarning donoligini maqtaydi. Uningcha, agar ayol oqila bo'lsa, o'z erining ishonchli do'sti va hamdardi bo'la oladi, u bevafolikni qoralaydi, oilani halokatga olib boradigan narsa, o'sha bevafolik, deydi.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Uvatov U. Imom al Buxoriy. Buyuk Yurt Allomalari. – Toshkent, 2016. 13-14 betlar.

<sup>2</sup> Ismoilova J.X. (2021). Sharq allomalari oila va tarbiya haqida. "Zamonaviy oilada, farzand tarbiyasida milliy

Abu Rayhon Beruniy butun dunyoda o‘zining tafakkur xazinasi bilan alohida o‘ringa ega bo‘lgan katta va bebaho ilmiy meros qoldirgan buyuk olimlardan biridir. Allomaning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “Minerologiya” kabi asarlarida ilm, falsafa, ta’lim-tarbiya, mehnat, tafakkur, kasb-hunarlarni egallashning ahamiyati to‘g‘risida bir qancha fikrlar bayon qilingan. Alloma ota-onalarga bola ruhiyatini hamisha mo‘tadil saqlashni tavsiya etadi. Bolaning ruhiyatini mo‘tadil saqlash uchun uni kuchli g‘azablanish, hafalik, qo‘rqish, qattiq jismoniy toliqish hamda uyqusizlikdan asrash orqali ta’minalashini aytadi. Bundan tashqari Abu Rayhon Beruniy insonni hamisha mehnat ulug‘lashi, barcha narsaga mehnat orqali erishish lozimligini ilgari surgan. Shu jumladan, “Minerologiya” asarida shunday deyiladi: “Mehnatsiz shon-shavkatga, martabaga erishgan kishi hurmatga loyiqli? Yuqori martabaga mehnatsiz erishgan kishi farog‘at soyasida yashaydi, yaxshi kiyinadi, ammo ulug‘lik libosidan mahrum, yalong‘ochdir”.

Yana bir shunday allomalarimizdan biri Abu Abdulloh Muhammad ibn Al-Xorazmiy butun dunyo ilm-faninini zabit etgan buyuk qomusiy olimdir. Uning matematika sohasida qilgan ishlari hozir ham barcha olimlar tomonidan tan olingandir. U asosiy e’tiborini ilm-u ma’rifatga, mantiqiy fikrlash malakasini oshirishga, til o‘rganishga qaratgan. Xorazmiy o‘z tilidan tashqari arab, fors, turk va yahudiy tillarini puxta egallagan. Muhammad Muso al-Xorazmiy o‘zining asarlarida ota-onalarni 2 toifaga, ya’ni tug‘ilish otasi (biologik ota) farzandning jismoniy yaratilishi, o‘sibulg‘ayishi uchun mas’ul bo‘lsa, ta’lim beruvchi ota (ma’naviy ota) esa farzandining ruhiy jihatdan to‘laqonli voyaga yetishi uchun javobgar bo‘lgan toifalarga ajratadi.

XI asrning buyuk mutafakkiri va shoiri Yusuf Xos Hojib o‘zining «Qutadg‘u bilig» — «Saodatga boshlovchi bilim» — kitobida o‘zining axloq hamda hayotga oid qarashlarini bayon etadi. Inson faqat jamiyatdagina kamolotga yetishi mumkin, muloqot va ijtimoiy-foydali mehnat uning rivojlanishi va yashashining mezonidir, deb hisoblaydi. «Boshqa odamlarga foydasi tegmaydigan inson — o‘likdir», — deb yozadi u. Odam kim bo‘lishidan qat’i nazar, shohmi, gadomi, avvalo, insoniy bo‘lishi kerak, chunki «dunyoda o‘lmas bo‘lib, faqat insoniylik qoladi», «Yaxshi axloqiy fazilatlarga ega kishi — har qanday qimmatbaho durlardan ham qimmatlidir». Shoirning fikricha, farzand ko‘rish va unga tarbiya berish har bir inson uchun buyuk baxtdir, ularsiz hayotning ma’nosi yo‘q. Lekin bu narsa ota-onaga juda katta mas’uliyat yuklaydiki, uning uddasidan chiqmoq, har bir ota-ona uchun ham farz, ham qarzdir. Shuning uchun ham Yusuf Xos Hojib oilaviy tarbiyani bola axloqiy taraqqiyotining asosi, deb hisoblagan: 20 «Agar bolaning xulqi yomon bo‘lsa, bunda bola ning aybi yo‘q, hamma ayb — otasida». Shuning uchun ham ota-ona, ayniqsa, ota bunga katta e’tibor bermog‘i

---

va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. 20-24-betlar

lozim<sup>3</sup>.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Sharq mutafakkirlarining butun ilmiy merosi, ma’naviy-axloqiy qarashlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, balki hamisha bu asarlar qayta-qayta mutolaa qilinishi bilan alohida e’tiborga molikdir. Sababi, avvalo, mashhur allomalarning shaxsiy hayoti, insoniy fazilatlari, ikkinchidan, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, ilmga chanqoqlik, kamolot sari intilish kabi g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan asarlarining tarbiyaviy ahamiyati hamisha bebaho ahamiyat kasb etadi. Allomalarimizning asarlari XXI asar globallashuv jarayonida oilaviy munosabatlar, milliy urf-odatlar, qadriyatlari asrab qolish, yovuzlikka, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashishda bebaho ma’naviy meros bo‘lib xizmat qila oladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Uvatov U. Imom al Buxoriy. Buyuk Yurt Allomalari. – Toshkent, 2016. 13-14 betlar.
2. Oila psixologiyasi: Akad. litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘l. / G.B. Shoumarov, I.O. Hay darov, N.A. Sog‘inov va boshq.; G‘.B. Shoumarovning tahriri ostida; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligi, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi.— T.: «Sharq», 2013. — 296 b.
3. Ismoilova J.X. (2021). Sharq allomalari oila va tarbiya haqida. “Zamonaviy oilada, farzand tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. 20-24-betlar.
4. Feruzabonu Ulug’bek qizi Baxriddinova. (2023). Tarixiy shaxslarni davriy o‘rganishda oila va farzand tarbiyasidan foydalanish. "Science and Education" Scientific Journal. Volume 4 Issue 5, 1202-1207-betlar.
5. <https://jdpu.uz/buyuk-mutafakkirlarining-ilmiy-merosida-oila-ota-ona-va-bola-munosabatlarining-talqini/>

---

<sup>3</sup> Oila psixologiyasi: Akad. litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘l. / G.B. Shoumarov, I.O. Hay darov, N.A. Sog‘inov va boshq.; G‘.B. Shoumarovning tahriri ostida; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligi, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi.— T.: «Sharq», 2013. — 296 b.